



MAKTABGACHA VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



A.AVLONIY NOMIDAGI  
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI



JIZZAX VILOYATI  
PEDAGOGIKA MARKAZI

**“INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA FAN, TA'LIM VA ISHLAB  
CHIQRISH INTEGRATSIYASINI TA'MINLASH:  
MUAMMO VA YECHIMLAR”**

**XALQARO ILMIY-AMALIY ONLAYN KONFERENSIYASI  
(2024-YIL, 15-IYUN)**

# **MATERIALLARI**

**“ENSURING THE INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND  
PRODUCTION BASED ON INNOVATIVE TECHNOLOGIES:  
PROBLEMS AND SOLUTIONS”**

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
ONLINE CONFERENCE  
(JUNE 15, 2024 Y)**

# **MATERIALS**





## ABU RAYHON BERUNIYNING YOSHLAR TARBIYASIGA DOIR QARASHLARI

*Nuraddinova Raviyajan Sultanbayevna*  
*Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti*  
*Tel-97-790-52-33*  
*E-mail: raviyajon.nuraddinova@urdu.uz*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Beruniyning ilm-fan rivoji, bilish va tafakkur, vizual idrok va yodlash jarayonlari haqidagi fikrlari hamda psixologik masalalarni bilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** bilish va tafakkur, vizual idrok, psixologik masala, axloqiy fazilatlar, ratsional bilim, tashabbuskorlik, fidoyilik.

Mamlakatimizda ijtimoiy siyosat va shakllanib borayotgan fuqarolik jamiyati asoslarining milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashuvini tizimli tadqiq qilish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" degan dasturiy g'oya asosida yoshlarni ona yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik, fidoyilik, axloqiy fazilatlarini shakllantirish – o'ta sharafli vazifadir".<sup>16</sup> Beruniy tug'ilib, o'sgan davrda Xorazm somoniylar davlatiga qaram bo'lsa-da, ma'lum darajada mustaqil edi. O'rta va yaqin Sharqning yirik ilmiy va madaniy markazaridan biri edi. Abu Rayhon Beruniy butun umrini ilmga bag'ishladi, o'zi hayot paytidayoq o'sha davrining eng buyuk olimi va mutafakkiri sifatida taniladi. Beruniy ilm-fan rivojiga g'oyat katta hissa qo'shdi. «Aql va ma'rifatda xali unga o'xshash biror kishini davron yarata olgani yo'q»,- deb yozgan edi XIII asr tarixshunosi Yoqut. Abu Rayhon Beruniy ham inson bilimlarni aqlning sezgi a'zolari bergan ma'lumotlar orqali egallashini aytadi. Beruniyning fikricha, inson barhayot ekan, extiyojlari saqlanadi. Oltin va kumushning kishi turmushida bevosita hech qanday ahamiyati yo'q, ular faqat vositaginadir. U yozadi: «Chunki ularning har ikkalasi toshdirlar, ularning o'zlari na to'ydira, na tashnalikni qondira, na zo'ravonlikni to'xtata, na yomonlikdan saqlay oladilar»<sup>17</sup>. Beruniy muruvvat va shavkatni eng yaxshi insoniy fazilat deb hisoblaydi. Uning ta'kidlashicha, muruvvatli kishi (ma'rv) boshqalarning qarzini to'lab yuboradi, o'zgalarga bag'ishlaydi. Shavkatli odam esa (fato) o'z qobiliyati, xushmuomalaligi, shavkatliligi, qat'iyligi, chidam, fazilat va kamtarlik xislatlari bilan ajralib turadi.

Beruniy o'z asarida muruvvat va futuvvatni ulug'lash bilan birga, ular o'rtasida farqni ham ko'rsatib o'tadi. Chunki muruvvat va futuvvat turli asoslarga ega. Biriga qodir bo'lgan odam ikkinchisiga qodir bo'lmasligi mumkin. Yana har bir ish o'z o'rnida va me'yorida bo'lishi shart. Xaddan tashqari qilingan ish oqilona bo'lmaydi.

Mutafakkirning fikricha, qalbdagi bilim bilan tafakkur bir-biriga uzviy bog'liq bo'lib, ular bir-biriga xizmat qilishi kerak. Shunday qilib, muallif hind falsafasidagi gnoseologik masalalar, asosan, ob'ekt va sub'ekt munosabatlari hamda insonning

---

<sup>16</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2020 йил энг устувор вазифалари тўғрисида Олий Мажлисга Мурожаатномасидан.

<sup>17</sup> Антология педагогической мысли Узбекской ССР. - М., 1986. С.90

bilish jarayonidagi bilim va ob'ekt doirasida shakllangan, deb hisoblaydi. Hind falsafasidagi bilish jarayoni ratsional hamda irratsional tusga ega. Beruniy ratsional bilimni aqliy bilim deb atagan va uning asosida kuzatish, taqqoslash, tajriba kabi usullar yotishini ko'rsatgan. Shu bilan bir qatorda, alloma irratsional (qalbdagi), ya'ni tug'ma bilimlarni alohida bir guruhga ajratgan va u haqda yunon, hind, sufiy mutafakkirlarining qarashlarini qiyosiy taqqoslagan.

Beruniyning bilish va tafakkur, vizual idrok va yodlash jarayonlari haqidagi fikrlari ham katta ilmiy qiziqish uyg'otadi. Alloma, ayniqsa nutq, sezgi va aqliy rivojlanish masalalariga jiddiy ahamiyat bergan. Beruniy fikricha, psixologik masalalarni bilish pedagoglar, o'qituvchilar, ota-onalar uchun zarurdir. Beruniyning ilm-fan rivojidagi buyuk xizmatlaridan biri tabiatni o'rganishda ishlab chiqqan ilmiy metodidir. Beruniy ilm-fan, jamiyatda bilim tarqatish, mehnat bilan jaholatdan qutilish mumkin, deb hisoblab, odamlarni o'zida yuksak axloqiy fazilatlarini tarbiyalashga chaqiradi. U bilim olishning o'zi katta va mashaqqatli mehnat, kuch, vaqt va sabr-toqat talab qiladi, deb biladi va odamlarda turli yo'llar bilan yod olish qobiliyati rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi. Beruniyning fikricha, o'qish insonni oliyanob qiladi, uni mehribon va aqlli bo'lishga sabab bo'ladi. Beruniy uchun "bilimning sofligidan boshqa" hech narsa yo'q. Buyuk mutafakkir ilm-fan yordamida tarbiyalangan yuksak axloqiy mezonlarni keng joriy etish jarayonida komillikka erishish mumkin, deb ta'lim bergan. Beruniy bilim insonni to'g'ri yo'lga boshlab borishiga chuqur ishonch hosil qilgan. Vaholanki, "bilim orqali najotga erishish faqat yomonlikdan tiyilsagina mumkin". Beruniyning jahon faniga qo'shgan hissasini yuksak baholagan E.Zaxau allomaning ilmiy uslubini quyidagicha ta'riflaydi: "Beruniy har bir mavzuni Arastu va Platon, Ptolemey va Galen g'oyalari asosida tarbiyalangan aql hukmidan o'tkazib va ayni mavzularni hozirgi zamon tanqidiy yondashuvi ruhida tadqiq etishi zamondoshlarimizni, shubhasiz, hayratga solishi muqarrar".

E.Zaxau Sharq, xususan, yaqin va O'rta Sharq halqlari madaniyatini asl matnlar asosida o'rganish va tarjima etishni qat'iy talab qilib, G'arb beruniyshunosligining keyinchalik aynan shu yo'nalishdan ketishiga sababchilardan biri bo'lgan, deb aytish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, ayrim G'arb olimlari tomonidan Sharq xalqlari madaniyati, umuman, tafakkur tarzini kamsitishga qaratilgan qarashlarga barham berishga xizmat qilgani tabiiy. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati va ma'rifatini o'sha davrda G'arbda ko'pincha "arab musulmon madaniyati" deb talqin qilinar edi. G'arb beruniyshunosligining shakllanishi hamda rivojlanishining yana bir muhim ahamiyati shundan iboratki, u bunday tasavvurlarni puchga chiqardi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoev Sh.M. O'qituvchi va murabbiylar-yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir.// Xalq so'zi. 1 oktyabr 2020 yil. №207 (7709).